

---

## HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI: YOSHLAR MUAMMOLARI HAL ETILMOQDA.

Bugun Toshloq tumani hokimi, 1-sektor rahbari Abduqahhor Djurabayev yoshlar murojaatlarini o'rganish maqsadida "Quy Yakkatut" MFYda istiqomat qilayotgan yoshlar bilan uchrashdi.

Uchrashuvda 10 nafarga yaqin yoshlar qatnashdi. Mahalla yoshlari asosan, ishga joylashish, uy-joy olish, tadbirkor uchun yer ajratish, tadbirkorlik uchun kredit olish, tibbiy va moddiy yordam kabi masalalarda tuman hokimiga murojaat etdilar.

Murojaatlarni aksariyati shu yerning o'zida hal etilgan bo'lsa, muddat talab etuvchi murojaatlar tegishli mutasaddilarga biriktirilib, ijrosi nazoratga olindi.

2023-06-17 17:13:23